



**PROSTATA BEZI ADENOMASI TASHXISIDA
ULTRATOVUSH TEKSHIRUVINING AHAMIYATI.**

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti

Toshkent shahar

Umarov Jahongir Tohirovich

+998945477080 jahongiru409@gmail.com

Dolzarbligi.

Prostata bezi adenomasi (benign prostata giperplaziyasi) erkaklar orasida, ayniqsa 50 yoshdan keyin keng tarqalgan urologik kasalliklardan biri hisoblanadi. Kasallik siydik chiqarishning buzilishi (LUTS – lower urinary tract symptoms), siydik oqimining pasayishi va qoldiq siydik to‘planishi bilan namoyon bo‘ladi. Kasallikning erta aniqlanishi asoratlarning (o‘tkir siydik tutilishi, siydik yo‘llari infeksiyasi, buyrak faoliyatining buzilishi) oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

Bu yildan-yilga oshib borayotgan ko‘rsatkich, taqqoslash uchun 2019-yilda 90mln dan ortiq odam kasallangan bo‘lsa, 2022-yilga kelib 115mlnga ko‘tarilgan.

Zamonaviy diagnostik usullar ichida ultratovush tekshiruvi (UTT) prostata hajmini aniqlash, siydik pufagi holatini baholash va qoldiq siydik miqdorini o‘lchashda keng qo‘llaniladigan, xavfsiz va informativ usul hisoblanadi.

Maqsad.

Prostata bezi adenomasi tashxisida ultratovush tekshiruvining diagnostik imkoniyatlarini baholash va uning klinik ahamiyatini aniqlash.

Materiallar va usullar.

Tadqiqotga prostata bezi adenomasi tashxisi bilan 30 nafar bemor jalb qilindi.



Barcha bemorlarga transabdominal ultratovush tekshiruvi, zarurat hollarda transrektal ultratovush tekshiruvi (TRUS) o'tkazildi.

Tekshiruv davomida quyidagi ko'rsatkichlar baholandi:

Prostata bezining hajmi, prostata ichki tuzilmasi, intravezikal protruziya darajasi, qoldiq siydik hajmi, siydik pufagi devori qalinligi.

Olingan natijalar klinik simptomlar va laborator ko'rsatkichlar bilan taqqoslandi.

Natijalar.

Tadqiqot natijalariga ko'ra:

-22 (73%) bemorda prostata hajmi 40 sm dan yuqori ekani aniqlandi.

-18 (60%) bemorda qoldiq siydik hajmi 50 ml dan ortiq bo'ldi.

-12 (40%) bemorda intravezikal protruziya kuzatildi.

-6 (20%) bemorda siydik pufagi devorining qalinlashuvi qayd etildi.

UTT yordamida prostata hajmi va qoldiq siydik miqdori klinik simptomlar

og'irligi bilan bevosita bog'liqligi aniqlandi.

Xulosa.

Prostata bezi adenomasi tashxisida ultratovush tekshiruvi yuqori informativlikka ega, xavfsiz va keng qo'llaniladigan diagnostik usul hisoblanadi.

UTT prostata hajmini aniqlash, qoldiq siydik miqdorini baholash va kasallik asoratlarini erta aniqlash imkonini beradi. Shu sababli prostata bezi adenomasi gumon qilinganda ultratovush tekshiruvini birlamchi diagnostik usul sifatida qo'llash tavsiya etiladi.

